

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**QOZON FEDERAL UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

DJAMALOV ZOHID ZAFAROVICH

**UZUM KEKI ASOSIDA IKKINCHI AVLOD BIOETANOL ISHLAB
CHIQRISH UCHUN EKOLOGIK XAVFSIZ KOMPLEKS
TEXNOLOGIYANI ISHLAB CHIQRISH**

06.01.11 – Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contes of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Djamalov Zohid Zafarovich

Uzum keki asosida ikkinchi avlod bioetanol ishlab chiqarish uchun ekologik
xavfsiz kompleks texnologiyani ishlab chiqish.....3

Джамалов Зоҳид Зафарович

Разработка экологически безопасной комплексной технологии получения
биоэтанола второго поколения на основе виноградного жмыха21

Djamalov Zokhid Zafarovich

Development of an environmentally safe integrated technology for the production
of second-generation bioethanol based on grape pomace.....39

E'lon qilingan ishlari ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**QOZON FEDERAL UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

DJAMALOV ZOHID ZAFAROVICH

**UZUM KEKI ASOSIDA IKKINCHI AVLOD BIOETANOL ISHLAB
CHIQRISH UCHUN EKOLOGIK XAVFSIZ KOMPLEKS
TEXNOLOGIYANI ISHLAB CHIQRISH**

06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari saqlash va qayta ishlash

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4060 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish Agentligi qoshidagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi dasturi doirasida, Qozon Federal universitetida Toshkent davlat agrar universiteti bilan hamkorlikda bajarilgan.

Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portal (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Islamov Soxib Yaxshibekovich,**
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar: **Azizov Aktam Sharipovich,**
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

Sagdullayeva Dilafruz Saidakbarovna,
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim.

Yetakchi tashkilot: **Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti.**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 19 aprel 2024 yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tdi. (manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi 2-uy. Tel.: (+ 998) 71 260-38-60; e-mail: tuag_info@edu.uz).

Dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 550574 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 1000164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy, Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi. Tel.: (+998) 71 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 06 aprel kuni tarqatildi.
(2024 yil 01 apreldagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).



J.N.Fayziyev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor.

M.Z.Xolmurotov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d. (PhD), dotsent

S.A.Yunusov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlarining ko'pchiligi jumladan, AQSh, Braziliya va Yevropa davlatlarining ko'p qismi bioetanolni yonilg'i sifatida ishlatishi sir emas. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilda jaxon bo'yicha 112,29 mlrd. litr bioetanol ishlab chiqarilgan va bu ko'rsatkich 2029 yilga borib 144,34 mlrd. litrni tashkil qilishi aytib o'tilgan. Bioyoqilg'i sanoatida oziq-ovqat chiqindilaridan bioetanol olish, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Shu o'rinda takidlash joizki, uzum keki (turpasi) – uzumni qayta ishlash sanoatining eng keng tarqalgan biologik chiqindilaridan biri sanaladi va u o'z navbatida uzum qobig'i, urug'i va rezavor mevani tutib turuvchi sopidan tashkil topgan bo'ladi. 2023 yilda uzumni ishlab chiqarish hajmi O'zbekiston bo'yicha 1,800 ming tonnani tashkil qilgan bo'lib, bu o'z navbatida kata miqdorda ikkilamchi chiqindi mahsulotlarining hosil bo'lishini anglatadi. Mavsum davomida, uzumni qayta ishlash bilan bog'liq ekologik muammolardan biri, bu qayta ishlash zavodlarida ajralib chiqadigan ko'p miqdordagi uzum sopi (281x103 t), uzum turpasi (787x103 t), sharob cho'kmasi (337x103 t) va chiqindi suvlarining (24x106 m³) hosil bo'lishidir. Ushbu qoldiqlarning ba'zi ifloslantiruvchi xususiyatlari, masalan pH (nordonlik) ko'rsatkichining pastligi va fenol moddalarining fitotoksik hamda antibakterial xususiyatlari uzum qoldiqlarini tabiiy parchalanishga to'sqinlik qiladi. Ma'lumki, dunyo miqyosida yiliga 60 mln. tonna uzum qayta ishlash uchun yetishtiriladi. FAO/JSST ma'lumotiga ko'ra, dunyoda yiliga 5-10 mln. tonna chiqindilar ishlab chiqariladi, shu jumladan O'zbekistonda ham 300-400 ming tonna qattiq chiqindi mahsulotlari hosil bo'ladi. Ushbu turdagi chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash choralarini tashkil qilmaslik, ham ekologik, ham iqtisodiy nuqtai nazardan muammolarga sabab bo'ladi. Uzum qoldiqlarining bugungi kundagi sanoat ulushi 20-25 % ni tashkil qilib, odatda ular qayta ishlanmaydi va zavod yaqinidagi ochiq yer maydolariga intensiv ravishda to'planishi hisobidan hosil bo'ladi. Bu o'z navbatida, atrof-muhit va ekologiyaning ifloslanishiga olib keladi. Ishlab chiqarish davomida hosil bo'ladigan chiqindi mahsulotlarning asosiy turi bu uzum rezvorlarini tutib turuvchi sopi, uzum turpasi va sharob cho'kmalari sanaladi. Shu jixatdan uzum qoldiqlarining kimyoviy tarkibi, bioyoqilg'i mahsulotlarining ikkinchi avlodi (BT_{II}) uchun bioetanol ishlab chiqarishda muhim xom-ashyo bazasi sanaladi.

Jaxonda yoqilg'i-energetika kompleksda (YEK) bioetanolning muqobil energiya sifatidagi roli tobora ortib bormoqda. Bioetanol ishlab chiqarishda muhim ko'rsatkichlardan biri bu – energiya balans koeffisienti (EBK) sanalib, olingan bioyoqilg'ida to'plangan energiya miqdori, uni ishlab chiqarish uchun sarflangan energiya miqdoriga nisbatan sarflanadi. O'tkazilgan bir qator tadqiqotlar natijasiga ko'ra, AQShda makkajo'xoridan ishlab chiqarilgan bioetanol bioyoqilg'isining birinchi avlodi (BT_I), EBK ko'rsatkichi bo'yicha ijobiy natija bermaydi. Olingan mahsulotlarga nisbatan, xom-ashyoga ko'p miqdorda energiya sarflanadi (xom-ashyoga ishlov berish, ekish, yig'ish va keyinchalik qayta ishlashni hisobga olgan holda). AQSh qishloq xo'jaligi departamentining rasmiy hisobotiga ko'ra,

makkajoʻxori bioetanolning EBK koʻrsatkichi 1,24 birlikni tashkil qilsada, ishlab chiqarish uchun sarflanadigan energiyaning bor yoʻgʻi 24 % ni tashkil qiladi. Sellyuloza bioetanolning EBK koʻrsatkichi 5-6 birlikni tashkil qilib, benzin bilan taqqoslanganda, BT_{II} ishlab chiqarish va uni qoʻllash davrida ajralib chiqadigan issiqxona gazlari miqdorining 85 % gacha kamayishi aniqlangan. Bioetanol yuqori oktan qiymatiga ega (dvigatelda 99 va tadqiqot usulida 105) yonish harorati pastroq, chiqindi gazlarisiz, sababi tarkibida oltingugurt birikmalari mavjud emas. Bioetanol – BT_{II} kul hosil qilmasdan yonganligi bois, alkogolli aralash benzinlardan foydalanish vaqtida dvigatel svechalarida choʻkindi hosil boʻlmaydi va ekspluatatsiya davrida uning haddan tashqari qizish holati kuzatilmaydi. Shu sabab ligninseluloza xom ashyosi asosida bioetanol – BT_{II} yoqilgʻisini ishlab chiqarish dolzarb mavzu sanaladi. Shu bilan birga, iqtisodiyot tamoyillariga mos keladi va bugungi kun taraqqiyot konsepsiyasiga toʻligʻicha javob beradi.

Respublikamizda soʻngi yillarda bioyoqilgʻi mahsulotlaridan keng foydalanishga alohida eʼtibor qartilmoqda. Jumladan, A.Azizov, N.Moʻminov, Sh.Imomov, B.Raxmatovlar tomonidan bioyoqilgʻi olish boʻyicha ishlar amalga oshirilgan boʻsada, Respublikada konserva va vino zavodlarida meva, sabzavot va uzum chiqindilarini qayta ishlash orqali ekologik toza bioyoqilgʻining ikkichi avlodini olish texnologiyasiga asoslangan tadqiqot ishlari yetarlicha oʻrganilmagan. Prezidentimizning 2019-yil 22-avgustdagi qarorida Oʻzbekistonda 2030-yilga qadar, qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish boʻyicha talabni 25 foizgacha yetkazish belgilab berilgan. Hozirgi paytda bu koʻrsatkich 10-12 foizni tashkil qiladi. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida, iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz taʼminlash hamda “yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etishga alohida eʼtibor qaratilgan. Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida, uzum turpasi asosida bioetanol BT_{II} yoqilgʻisini ishlab chiqarish va texnologiyani takomillashtirish boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5200-son “Uzumchilikni rivojlantirishda Klaster tizimini joriy etish, sohaga ilgʻor texnologiyalarni jalb qilishni Davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi 258-son “Sabzavot-polizchilik, bogʻdorchilik va uzumchilik yoʻnalishidagi fermer xoʻjaliklarining yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot ishlari Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. 2024 yilga kelib Oʻzbekiston Respublikasida 181 ming ga maydonga uzum ekish rejalashtirilgan boʻlib, mavsum

davomida 2 million tonna uzum yig'ish reja qilingan. Tahlil natijalariga ko'ra qayta ishlash hisobidan tahminan 400 ming tonna uzum turpi hosil bo'lishi kutilmoqda. Ligninsellyuloza, fermentativ gidroliz, hamirturush shtammlari bilan ishlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, hususan bioetanol ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda E.A.Skiba, V.N.Lukyanin, O.V.Lebedev O.V.Baybakova, T.S.Kovaleva, G.F.Miranova, V.S.Saxa, A.S.Xachiyan va Respublikamiz olimlaridan A.Sh.Azizov, N.Sh.Mo'minov, Q.A.Sharipov, Sh.J.Imomov, R.K.Musurmonov, B.Raxmatov va boshqalar tomonidan soha bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan. Shunday bo'lsada, ligninselulozali bioetanol BT_{II} olishda ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi va soha bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari yetarli emas deb sanaladi.

Bioetanolning ikkinchi avlodini ishlab chiqarish uchun ilgari ishlab chiqilgan (an'anaviy) texnologiyalarni tahlil qilish, gidroliz va alkogolli fermentatsiya bosqichlarida muhim muammolarni aniqlashga imkon beradi. Ularning yechimi sifatida, bioetanol – BT_{II} ishlab chiqarish texnologiyasi samaradorligini sezilarli darajada oshirish va bioetanolni sanoat texnologiyasida qo'llash shular jumlasiga kiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Rossiya Federatsiyasi Qozon Federal universitetida Toshkent Davlat agrar universiteti bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish Agentligi qoshidagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi dasturi doirasida bajarilgan (Jamg'arma vasiylik kengashining 2019 yil 7 maydagi 9-son bayoni qarori, DR-2019-0011 raqamli sertifikat).

Tadqiqotning maqsadi. Bioetanol va lignogumin og'itlar olish imkonini beradigan uzum turpalari asosida, kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish orqali atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta'sirini kamaytirish.

Tadqiqotning vazifalari:

bioetanol BT_{II} ishlab chiqarish uchun uzum turpasini qayta ishlashning mavjud texnologiyalarini har tomonlama tahlil qilish;

spirtli bijg'ish jarayonining yaxshi borishi uchun talab qilinadigan shakar saqlovchi birikmalarning yuqori konversiya bilan chiqishini taminlash maqsadida, eksperimental-statistik modellashtirish metodologiyasi asosida multiferment kompleks (MFK) tarkibini ishlab chiqish;

bioetanol BT_{II} olish uchun *Saccharomyces cerevisiae* hamirturush shtammlarini tanlash;

uzum turpasi asosida yuqori konsentratsiyali bioetanol olishda fermentatsiya jarayoni uchun optimal oziq muhiti tarkibini ishlab chiqish;

fermentativ gidroliz va alkogolli bijg'itish jarayonlarining kombinatsiyalanish hususiyatlarini o'rganish, jarayon samaradorligini tahlil qilish asosida ferment-substrat va oziq muhiti tarkibining o'zaro ta'sirini ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Uzum turpasi "Meva-sharbat vinochilik eksperimental

unitar korxonada” tomonidan taqdim etilgan. Dissertatsiya ishida xom ashyo sifatida namligi 30% boʻlgan *pushti muskat, aleatiko, rkatsiteli, saperavi, soyaki* kabi aralash uzum navlarining presslanishidan qolgan uzum turpasi namunalari ishlatilgan. Uzum yigʻish jarayoni 2020 yil avgustdan noyabr oyigacha vinochilik eksperimental unitar korxonada tomonidan amalga oshirilgan (Toshkent viloyati, Toshkent tumani).

Tadqiqotning predmeti sifatida uzum turpasining kimyoviy gidroliz qilish hisobidan tarkibidagi lignin qismini yoʻq qilish, ferment preparatlari bilan sellyuloza qismiga ishlov berish orqali hamirturush shtammlari bilan bijgʻitish, bioetanol hajm konsentratsiyasini oshirish uchun sistemaga qoʻshimcha ferment substrat kiritishning taʼsiri olingan.

Tadqiqotning usullari. Multif ferment kompleks (MFK) ni ishlab chiqish usuli, ligninsellyuloz xom-ashyoni samarali biokonversiya qila oladigan ferment preparatlardan foydalanishga qaratilgan. Ish jarayonida bioetanol olish uchun ishlab chiqilgan MFK va oziq muhiti kompozitsiyalari ehtimoliy nazariya asosida matematik modellar hisob kitobiga koʻra tashkil qilingan, fermentativ gidroliz va alkagolli bijgʻish jarayonlarini amalga oshirishning bir bosqichli texnologik yechimlari ishlab chiqilgan, substrat namligini aniqlashda MV-23 analizatoridan foydalanilgan, muhitning faol kislotaligi I-160MI ionometri tomonidan, reaksiya massasi tarkibidagi shakar tahlili MiniSpin 5452 sentrafugasi va UniCo UV-2804 spektrofotometri yordamida, quruq moddalar miqdori ED-23 quritish shkafi orqali aniqlangan, tajriba davomida bioetanol konsentratsiyasi GOST 3639-79 «Растворы водно-спиртовые методы определения концентрации этилового спирта» va GOST 32039-2013 «Водка и спирт этиловый из пищевого сырья Газохроматографический метод определения подлинности» talablariga muvofiq aniqlangan, eksperimental tadqiqot natijalari bir qator tajribalar asosida Mathcad va Statsoft Statistica dasturiy taminoti yordamida ishlangan. Tadqiqot ishi Qozon Federal universitetining “Neft, gaz va uglerod materiallari” kafedrasiga qarashli eksperimental static modellashtirish laboratoriyasida, shuningdek, “Neft, gaz, bitum materiallari va uglerod energiyasi texnologiyalari” ilmiy-tadqiqot markazida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor uzum turpasi asosida bioetanol BT_{II} ishlab chiqarishning kompleks texnologiyasini batafsil tahlil qilish amalga oshirilgan;

nitrat kislota yordamida xom-ashyoga oldindan ishlov berish orqali Bioetanol BT_{II} olish texnologiyasini optimallashtirishda oʻsish muhiti va MFK tarkibini ishlab chiqish, fermentativ gidroliz va alkagolli bijgʻish jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida, matematik modellashtirish va uchburchakli 3D diagrammalari ishlab chiqilgan;

tajribada BT_{II} bioyoqilgʻi ishlab chiqarish jarayonida sellyulaz faolligini namoyon qila oluvchi *Saccharomyces* oilasiga mansub Y-1693 hamirturush shtammlaridan foydalanish yuqori samara berishi isbotlangan;

ammoniy sulfat, kaliy monofosfat, xamirturush ekstrakti, kaltsiy xlorid, magniy sulfat, benzilpenitsillin kabi aktivator va minerallar bilan boyitilgan oziq

muhitining tarkibi fermentatsiya jarayonida samarali natija berishi aniqlangan;

ilk bor fermentativ gidroliz va alkagolli bijg'ishning kombinatsiyalangan jarayoni ishlab chiqilib, uzum turpalari asosida vujudga keladigan shakarli moddalar va bioetanol BT_{II} samaradorligini tahlil qilishda uchburchakli 3D diagrammalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Bioetanol BT_{II} ishlab chiqarishning kombinatsiyalangan jarayonida termotolerantlik xususiyatini namoyon eta oladigan hamirturush shtammlari bilan bir qatorda, uzum keki asosida shakar birikmalarini samarali konversiya qila oluvchi MFK tarkibi ishlab chiqilgan;

BT_{II} bioetanol olishda kompleks yondashuv ishlab chiqilgan bo'lib, texnik yechimlarning yangiligi Rossiya Federatsiyasi tomonidan ixtiroga patent orqali tasdiqlangan (RU 2 790 726 C1 "Способ получения биоэтанола из виноградной выжимки" 28.02.2023 г. Бюл. № 7, МПК C12P 7/10, C12P 7/06);

uzum turpasi asosida ishlab chiqilgan MFK va hamirturush shtammlari ishtirokida biomassa konversiyasi samaradorligi, alkagolli bijg'ish jarayonida olinadigan bioetanol BT_{II} hajm konsentratsiyasini 2,5 dan 5,5 % vol. gacha oshishiga erishilgan;

bioetanol chiqish konsentratsiyasi 66,3 % massani tashkil qilib, uzum turpasi biomassasiga nibatan 16,9 dal/tonnani tashkil qilgan va bioetanolning hajm konsentratsiyasini 2,2 barobarga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uzum turpasi asosida bioetanol BT_{II} ishlab chiqarishning kompleks texnologiyasini batafsil tahlil qilish amalga oshirilganligi, fermentativ gidroliz va alkagolli bijg'ishning kombinatsiyalangan jarayoni ishlab chiqilib, uzum turpalari asosida vujudga keladigan shakarli moddalar va bioetanol BT_{II} samaradorligini tahlil qilinganligi, tajribada BT_{II} bioyoqilg'isini olish jarayonida selulaz faolligini namoyon qila oluvchi *Saccharomyces* oilasiga mansub Y-1693 hamirturush shtammlaridan foydalanish yuqori samara berishi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati BT_{II} bioetanol olish uchun kombinatsiyalangan jarayonda termotolerantlik hususiyatini nomoyon qila oluvchi hamirturush shtammlari bilan bir qatorda uzum turpalari asosida shakarli birikmalarni samarali konversiya qila oluvchi MFK tarkibi ishlab chiqilganligi, BT_{II} bioetanol olishda kompleks yondashuv ishlab chiqilgan bo'lib, texnik yechimlarning yangiligi Rossiya Federatsiyasi tomonidan ixtiroga patent orqali tasdiqlanganligi, bioetanol chiqish hajmi 66,3 % massani tashkil qilib, uzum turpasi biomassasiga nibatan 16,9 dal/tonnani tashkil qilganligi va bioetanolning hajm konsentratsiyasini 2,2 barobarga oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha nazariy kuzatuv va laboratoriya tajribalarining muntazam aprotatsiya ko'rigidan o'tkazilganligi; ilmiy hisobotlarning muhokama etilganligi; tajriba ma'lumotlariga matematik-statistik ishlov berilganligi; tadqiqot natijalarining xorijda va respublikada o'tkazilgan nufuzli ilmiy-amaliy konferensiyalarda, innovatsion yarmarkalarda muhokama qilinganligi, ilmiy nashrlarda maqolalar chop etilganligi

bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uzum keki asosida ikkinchi avlod bioetanol ishlab chiqarish uchun ekologik xavfsiz kompleks texnologiyani ishlab chiqish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

Uzumni qayta ishlash korxonalarida chiqindi sifatidagi turpasi asosida ikkinchi avlod bioetanol ishlab chiqarish ishlanmasi Jizzax viloyati, Zomin tumani, "Zomin Uzumzorlari Maydonlari" MCHJ da 1 tonna uzum chiqindisiga nisbatan joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 15 yanvardagi 06/27-06/69-sonli ma'lumotnomasi). Natijada rentabellik 170% ni tashkil etgan.

Uzumni qayta ishlash korxonalarida chiqindi sifatidagi turpasi asosida ikkinchi avlod bioetanol ishlab chiqarish ishlanmasi Toshkent viloyati, Toshkent tumani "Meva-sharbat vinochilik eksperimental unitar korxonasi" ga 1 tonna uzum chiqindisiga nisbatan joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 15 yanvardagi 06/27-06/69-sonli ma'lumotnomasi). Natijada rentabellik 170% ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari Qozon Federal universiteti hamda Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy metodik kengashi tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilib, ilmiy natijalar Respublika va xorijda tashkil etiladigan jami 12 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamalardan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy ish, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (shundan 5 tasi xorijiy) va 1 ta ixtiroga patent olingan. 12 ta maqola va tezislari (shundan 10 tasi xalqaro) ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari to'plamida nashr qilingan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya ishining hajmi 116 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi asoslangan, tadqiqot ishining maqsad va vazifasi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati shakllantirilgan.

Birinchi bobda lignosellyuloz xom ashyodan bioetanol ishlab chiqarishning mavjud texnologiyalari haqida umumiy ma'lumot berilgan; bioetanolning zamonaviy bozori tasvirlangan; uzum va vino ishlab chiqarish mahsulotlarining xususiyatlari va kimyoviy tarkibi berilgan; ikkilamchi mahsulotlarni qayta ishlashning asosiy yo'nalishlari keltirilgan. Ushbu bobda fermentatsiya jarayoni uchun sellyulozali xom-ashyoni biokonversiya qilish usullari; biokonversiya jarayonida ishtirok etadigan ferment turlari; bioetanol BT_{II} olish texnologiyasining konfiguratsiyalari ko'rib chiqilgan.

Ikkinchi bobda tadqiqot davomida ishlatilgan xom-ashyo va uni oldindan qayta ishlash mahsulotlari (substratlar), ferment preparatlari, bioetanol BT_{II}

синтезловчилар тавсифи ва аналитик услублар ко‘рсатиб о‘тилган. Shuningdek, 1-rasmda uzum turpasi asosida maqsadli mahsulotlar olish jarayonining sxemasi keltirib o‘tilgan.

Uchinchi bobda eksperimental qism va tadqiqotlar natijalari muhokama qilinadi. “*Fermentativ gidroliz jarayonining samarali borishi uchun uzum turpasini oldindan kimyoviy qayta ishlash samaradorligini baholash*”. Fermentativ gidroliz jarayonining samaradorligini oshirish uchun uzum turpasi nitrat kislotasi va natriy gidroksid bilan oldindan kimyoviy usul bilan ishlov beriladi. Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirib o‘tilgan. Nitrat kislotasi bilan ishlov berilgan uzum turpasiga POA va natriy gidroksid bilan ishlov berilgan xom-ashyoga PSHO deb nom beriladi.



1-рasm. Uzum turpi asosida bioetanol olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha eksperimental tadqiqot usullarining tarkibiy va uslubiy sxemasi.

Olingan tahlil natijalariga ko‘ra, fermentativ gidroliz jarayoni uchun POA substrati tanlandi. Buni nitrat kislotaning o‘yuvchi natriyga nisbatan ijobiy ta‘siri bilan izohlash mumkin. Bunda, nitrat kislotasi yordamida xom ashyodan gidrolizlanmaydigan ligninni olib tashlash va fermentativ gidroliz jarayonining samarali borishi uchun sellyuloza konsentratsiyasini oshirish shular jumlasiga kiradi.

Uzum turpasi xom ashyosini oldindan qayta ishlash va olingan mahsulotlarning tarkibiy qismlari 2020-2022 yy. (n=3)

Miqdori	Tadqiqot ob'ekti, massa bo'yicha %		
	Uzum turpasi	Substratlar	
		POA	PSHO
Polisaxaridlar, shu jumladan α -selluloza	43,0 \pm 1,0	76,8 \pm 0,1	78,6 \pm 0,1
Ligninga o'xshash moddalar	37,0 \pm 0,1	6,2 \pm 0,1	6,5 \pm 0,1
Pentozanlar	15,9 \pm 0,1	13,0 \pm 0,1	12,2 \pm 0,1
Azotli moddalar	1,5 \pm 0,1	1,8 \pm 0,1	1,7 \pm 0,1
Kul qoldig'i	2,6 \pm 0,1	1,8 \pm 0,1	1,0 \pm 0,1
Xom ashyoning chiqishi %	100	46,3 \pm 0,1	44,7 \pm 0,1

Izoh: POA – nitrat kislota bilan ishlov berishdan olingan mahsulot; PSHO – natriy gidroksid bilan ishlov berishdan olingan mahsulot.

“Fermentativ gidroliz jarayoni uchun ko‘p fermentli kompleks tarkibini eksperimental-statistik modellashtirish”. Uchburchak diagrammalar (uchlik grafik bog‘liqliklar) yordamida yuqori samarali volumetric matematik modellashtirishdan foydalanilgan holda yangi kompozitsiyalar ishlab chiqildi. Bular: MFK (multiferment kompleks) va bioetanol BT_{II} ishlab chiqarish uchun uzum turpasi biomassasining fermentativ gidroliz va spirtli bijg‘ish jarayonlarining borishi uchun oziq muhiti tarkibi. Tajribada Tsellolyuks-A, Ultraflo Core, BrewZyme BGX kabi ferment preparatlarning fermentativ gidroliz jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Birinchi bosqichda ferment preparatlarning optimal nisbati aniqlandi. Buning uchun MFK uch komponentli aralashma sifatida ko‘rib chiqildi va quyidagi shartlarni qondirishi ko‘zda tutildi (1):

$$[a + b + c = 1], \quad (1)$$

bu yerda, a, b, c – Tsellolyuks-A, Ultraflo Core, BrewZyme BGX kabi ferment preparatlarining nisbiy konsentratsiyasi.

Uni aniqlash uchun quyidagi nisbatlardan foydalaniladi (2):

$$a = \frac{(A - A_{min})}{(A_{max} - A_{min})}; \quad b = \frac{(B - B_{min})}{(B_{max} - B_{min})}; \quad c = \frac{(C - C_{min})}{(C_{max} - C_{min})} \quad (2)$$

bu yerda, A, B, C – MFK tarkibiga kiruvchi ferment preparatlari konsentratsiyasi: Tsellolyuks-A, Ultraflo Core, BrewZyme BGX, (mg/g substrat);

$A_{max}=40$ mg/g; $B_{max}=50$ mg/g; $C_{max}=100$ mg/g – bu MFK tarkibiga kiruvchi ferment preparatlarining maksimal konsentratsiyasi;

$A_{min}, B_{min}, C_{min} = 0$ mg/g – esa MFK tarkibidagi ferment preparatlarning minimal konsentratsiyasi.

Fermentativ gidroliz jarayonida kompleks fermentlarning gidrolitik xususiyatlarini aniqlash, biomassaning parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan jamg‘aruvchi shakar moddalarning to‘planish dinamikasiga muvofiq amalga oshiriladi. MFKni modellashtirish natijasi, gidroliz jarayonida to‘plangan jamg‘aruvchi shakar moddalar konsentratsiyasi miqdori bilan belgilanadi (3). Ushbu jarayon substratga ta’sir qiluvchi MFK tarkibiga bog‘liq. Quyidagi tenglama asosida gidroliz jarayonida to‘plangan jamg‘aruvchi shakar moddalar


konsentratsiyasi aniqlanadi:

$$K = 23,3a + 22,6b + 14,1c + 7,5ab + 30,4ac + 29,2bc \quad (3)$$

Bu yerda K – jamg‘aruvchi shakar moddalarning yakuniy konsentratsiyasi g/l.

Natijada, (1) shartni hisobga olgan holda, kamayuvchi gradient usuli bilan optimallashtirish orqali fermentativ gidroliz jarayonida to‘planadigan jamg‘aruvchi shakar moddalarining konsentratsiyasini maksimal miqdorda, ferment preparatlari miqdorini quyidagi nisbatda olganda (mg/g), oshirishga erishildi: Tsellolyuks-A – 20, Ultraflo Core – 12,5, BrewZyme BGX – 25. Umumiy massa substratga nisbatan 57,5 mg/g ni tashkil qildi.

Topilgan nisbat, jamg‘aruvchi shakar moddalar konsentratsiyasini 1,95 baravar oshirishga imkon berdi. Jamg‘aruvchi shakar moddalar konsentratsiyasiga MFK ning ta’siri 2-rasmdagi uch o‘lchamli grafik yordamida tahlil qilindi. Tajriba natijalari 2-jadvalda keltirib o‘tilgan. MFK tarkibidagi ferment preparatlarining optimal nisbati topilgach, gidroliz jarayonida to‘planadigan jamg‘aruvchi shakar moddalari va glukozaning miqdorini oshirish maqsadida MFK turli konsentratsiyalarda ta’sir ettirilib, gidroliz kinetikasini o‘rganish o‘tkazildi.



2-rasm. MFK va jamg‘aruvchi shakar moddalar miqdorini aniqlashning uch o‘lchamli grafigi

Fermentativ gidroliz jarayonida substratni tez va samarali biokonversiya qilish uchun ko‘p fermentli kompleks tarkibi ishlab chiqildi. MFK miqdori 57,5 dan 115 mg/g gacha ko‘tarilganda, gidroliz jarayonida hosil bo‘ladigan glyukoza miqdori 11,8 % ga oshishiga erishildi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, MFK konsentratsiyasining 2 baravarga ko‘payishi fermentativ gidroliz paytida reaksiya massasining hosil bo‘lish tezligini bir necha baravarga tezlashtiradi.

“*Saccharomyces cerevisiae* alkogolli xamirturush shtammlarini tanlash”.

Ishda *S. cerevisiae* hamirturushining uchta shtammi ishlatilgan: Y-1693, Fm17, PM-16.

S. cerevisiae Y-1693 optimal o‘shish harorati 28 °C. Shtammning o‘ziga xos xususiyati gidrolizatlarga qarshilikdir.

S. cerevisiae Fm17 optimal o‘shish harorati 32-38 °C. Shtammning o‘ziga xos

xususiyati ingibitorlarga yuqori qarshilik, termotolerantlik (40 °C), osmofillik (27 % quruq modda).

S. cerevisiae PM-16 optimal o‘shish harorati 28-30 °C. Shtammning o‘ziga xos xususiyati osmofillik (27 % quruq modda).


2-jadval

Fermentativ gidroliz jarayoni uchun MFK nisbatini ishlab chiqish sxemasi

Namuna	Ferment preparatlarning nisbati, mg/g			Jamg‘aruvchi shakar moddalarining konsentratsiyasi g/l
	FP-1 «Tsellouks-A»	FP-2 «Ultraflo Core»	FP-3 «BrewZyme BGX»	
FP-1	40	-	-	23,1
FP-2	-	50	-	24,1
FP-3	-	-	100	14,2
FP-1+FP-2	20	25	-	26,5
	30	12,5	-	26,2
FP-1+FP-3	20	-	50	26,3
	10	-	75	19,3
FP-2+FP-3	-	25	50	25,3
	-	37,5	25	24,5
FP-1+FP-2+FP-3	10	25	25	27,5
	13,6	16,5	33	27,6
	20	12,5	25	27,7

Shtammlar uchta tajriba asosida, fermentativ gidroliz va alkogolli bijg‘itishning birlashtirilgan jarayonida xamirturush sifatida alohida-alohida qo‘llanilgan. Eng yuqori qiymatlarga ega bo‘lgan xamirturush hujayralari soni, barcha tajribalarda fermentatsiyaning ikkinchi kunida sodir bo‘lgan. PM-16 tajribada 35,0 mln. KOE/ml (kultura 27 %), Fm17 33,8 mln. KOE/ml (kultura 24 %) va Y-1693 52,5 mln. KOE/ml (sof kultura 26 %) hosil qilgan. Fermentatsiyaning 7-kunida birinchi tajribadagi xamirturush hujayralari soni 11,5 mln. KOE/ml gacha kamaygan (ko‘payish tezligi 13 %), ikkinchi tajribada esa xuddi shu darajada qolgan 33,8 mln. KOE/ml (ko‘payish tezligi 23 %), uchinchisida esa – 50,1 mln. KOE/ml (ko‘payish tezligi 20 %). PM-16 va Fm17 xamirturushlari Y-1693 nazorat shtammidan bir oz kamroq natija qayd etdi. Ammo faol va gidrolizlanadigan muhitga chidamliligi bilan ajralib turdi.

Fermentatsiya jarayonining 3-kunida bioetanol konsentratsiyasi barcha 3 shtamm uchun hajmiy konsentratsiya bo‘yicha 1,7-2,0 % vol. ni tashkil etdi. Farq fermentatsiya jarayonining oxirida paydo bo‘ldi: tajribada PM-16 – 2,0 % vol., Fm17 tajribasida 2,5 % vol., Y-1693 nazorat shtammi tajribada 2,3 % vol. tashkil qildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, Fm17 shtammi *Saccharomyces* sinfiga mansub boshqa shtamlarga nisbatan aniq ustunlikni ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Y-1693 shtammi o‘zining xususiyatlari bilan Fm17 dan kam emasligini nomoyon qildi. Shuning uchun keyingi tajribalarda spirtli fermentatsiya jarayoni uchun, Y-1693 shtammi qo‘llanildi. 3-rasmda fermentativ gidroliz va alkogolli bijg‘ish jarayonlarining davomiyligiga qarab, uchta tajribada asosida, vaqt oralig‘i davomida to‘planadigan jamg‘aruvchi shakar moddalarining konsentratsiyasi va etanolning hajm konsentratsiyalarining natijalari keltirib o‘tilgan.



3-рasm. Jamg‘aruvchi shakar moddalar va bioetanol hajm konsentratsiyasining fermentatsiya jarayoni davomiyligiga bog‘liqligi

“Bioetanolning maksimal miqdorini olish uchun fermentatsiya jarayoniga oziq muhiti tarkibini ishlab chiqish”. Tajribada, ammoniy sulfat, kaliy monofosfat kabi mineral moddalar va xamirturush ekstraktining ta’siri o‘rganildi. Ushbu tarkibiy qismlarga qo‘shimcha ravishda, oziq muhiti tarkibiga quyidagilar kiritildi: magniy sulfat (1 g/l) va kaltsiy xlorid (0,2 g/l), ularning konsentratsiyasi barcha tajribalar uchun doimiy edi. Bioetanol hosildorligi 48,84 % dan 76,87 % gacha o‘zgarishi aniqlandi. Tajribalar natijalari 3-jadvalda keltirib o‘tildi.

3-jadval

Spirтли bijg‘itish jarayonida bioetanolning maksimal miqdorini olish uchun oziq muhit tarkibini shakllantirish natijalari

Mineral qo‘shimchalar va fermentatsiya faollashtiruvchilari	Tajriba tartib raqami									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
(NH ₄) ₂ SO ₄ , g/l	0	4	0	4	2	0	2	2	2	2
KH ₂ PO ₄ , g/l	0	4	4	4	2	2	2	4	2	0
CaCl ₂ , g/l	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
MgSO ₄ , g/l	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
Xamirturush ekstrakti, g/l	0	20	20	0	20	10	0	10	10	10
<i>Ko‘rsatkichlar</i>										
Tezlik konstantasi yo‘qoldi CC·10 ³ , soat ⁻¹	50,01	49,72	49,51	50,30	49,63	50,40	50,03	49,71	50,22	50,60
Kamaytiruvchi shakar moddalarining qoldiq konsentratsiyasi, g/l	9,91	10,63	11,12	9,21	10,92	8,83	10,04	10,60	9,43	8,41
Bioetanol konsentratsiyasi, % vol.	2,22	1,62	1,72	2,10	2,20	2,30	2,35	2,41	2,48	2,55
Bioetanolning chiqishi, %	66,92	48,84	51,85	63,31	66,32	69,33	70,84	72,65	74,76	76,87

Optimallashtirish muammosini hal qilish natijasida bioetanolning maksimal rentabelligi va konsentratsiyasiga erishish uchun quyidagi omillarning boshlang‘ich konsentratsiyasini ta’minlash kerakligi aniqlandi: ammoniy sulfat – 1,90 g/l; kaliy monofosfat – 0,78 g/l; xamirturush ekstrakti – 6,77 g/l. ko‘rsatilgan dastlabki konsentratsiyalarda bioetanol hosildorligi 79,88 % ni tashkil qiladi, bu nazorat tajribaga nisbatan 12,96 % ga oshadi degani. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, oziq muhiti tarkibiga menereal moddalar va

aktivatorlarni kiritish orqali (76,87 % massa gacha) bioetanol ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati yaratiladi.

“Fermentativ gidroliz va alkogolli bijg‘itish jarayonlarining kombinatsiyalangan holatda borishini aniqlash”. Tajriba 46 °C haroratda MFK (2-jadval) ishtirokida gidroliz jarayonida kamaytiruvchi shakar moddalarining miqdori 84% ga yetguniga qadar amalga oshiriladi. Shundan so‘ng, spirtli bijg‘itish jarayonini amalga oshirish uchun fermenterdagi reaksiya massasi 28 °C haroratgacha sovuq kerak. Fermentativ gidroliz davomiyligini aniqlash 8 soatdan 72 soatgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida amalga oshiriladi. Nazorat tajribasi, bu tajriba uchun 72 soat deb belgilanadi. Tadqiqot natijalari 4-jadvalda keltirib o‘tilgan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari bioetanol ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflash mumkinligini ko‘rsatadi: gidroliz davomiyligi 16-32 soat; xamirturushni qo‘llash paytida jamg‘aruvchi shakar moddalarining konsentratsiyasi 24,7-32,6 g/l; xamirturushni qo‘llashdan oldin tsellyuloza va gemisellyulozalarining gidrolizlanish darajasi 40,0-52,9 %; bioetanol konsentratsiyasi hajm jihatdan 1,4-1,8 % vol; bioetanol BT_{II} chiqishi 41,2-53,0 % ni tashkil qiladi. 4-rasmda fermentativ gidroliz va alkogolli bijg‘ish jarayonlarining grafik bog‘liqligi ko‘rsatilgan.


4-jadval

Bioetanol BT_{II} biokonversiya jarayonining samaradorligi

Umumiy parametrlar	Fermentativ gidrolizning alohida bosqichining davomiyligi, soat					
	8	16	24	32	48	72
Xamirturushni qo‘llash paytida jamg‘aruvchi shakar moddalarining konsentratsiyasi, g/l	17,5	24,7	31,1	32,6	34,4	34,6
Xamirturushni qo‘llashdan oldin sellyuloza va gemisellyulozalarining gidroliz darajasi, %	23,4	40,0	50,4	52,9	55,8	57,1
Spirtli fermentatsiyadan keyin jamg‘aruvchi shakar moddalarining qoldiq konsentratsiyasi, g/l	9,1	7,6	5,6	5,6	5,8	9,1
Bioetanol konsentratsiyasi, % hajm	0,9	1,4	1,9	1,8	1,7	1,5
Bioetanol chiqishi, %	26,5	41,2	55,9	53,0	50,1	44,2
Uzum turpasiga nisbatan bioetanolning chiqishi, dal/t	6,7	10,4	14,2	13,4	12,7	11,2

